

10-sinf 1-5-mavzular

- 1.** Quyidagi fikrlardan qaysi biri noto‘g‘ri?
- A) Geoekologiya fani atrof-muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarish va ekologik muammolarni geotizimlar doirasida tadqiq qiladi.
 - B) Geomorfologiya fani yer yuzining relyefini o‘rganadi.
 - C) Biogeografiya fani tirik organizmlarning yer yuzida tarqalishini o‘rganadi.
 - D) Geokriologiya fani qor va muzliklarni o‘rganadi.
- 2.** Buyuk geografik kashfiyotlar asosan nechta yo‘nalishda olib borildi?
- A) 2
 - B) 4
 - C) 3
 - D) 5
- 3.** Tabiat zonalligi ta’limoti qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan?
- A) A. Gumboldt
 - B) O. Kotsebu
 - C) A. Sochava
 - D) V. Dokuchayev
- 4.** Eramizdan avvalgi 2-ming yillikda kimlar O‘rta dengizdan Gibraltar bo‘g‘izi orqali suzib o‘tib, Afrika qirg‘oqlari bo‘ylab Hindistongacha suzib borganlar?
- A) finikiyaliklar
 - B) arablar
 - C) shumerliklar
 - D) yunonlar
- 5.** Sayyoraviy ahamiyatga ega tabiiy geografik jarayonlarni va geografik qobiqni bir butun yaxlit fan sifatida qaysi fan o‘rganadi?
- A) Geomorfologiya
 - B) Geoekologiya
 - C) Gidrologiya
 - D) Umumiy tabiiy geografiya
- 6.** 1544-yilda sodir bo‘lgan voqeani toping.
- A) B. Varenius «Umumiy geografiya» nomli kitob yozdi.
 - B) S. Myunster «Kosmografiya» nomli kitob yozdi.
- C) I. Kantning «Tabiiy geografiyadan ma’ruzalar» nomli kitobi nashr qilindi.**
- D) J. Laperuz rahbarligida fransuz ekspeditsiyasining dunyo bo‘ylab sayohati boshlandi.**
- 7.** «Atmosfera hodisalari haqida» nomli kitobning muallifi kim?
- A) Kant
 - B) Lomonosov
 - C) Leybnits
 - D) Pallas
- 8.** Geografiya fani rivojlanishining qaysi bosqichida Yerning shakli va o‘lchamlari aniq o‘lchandi, geodeziya, kartografiya, gidrologiya, iqlimshunoslik fanlari shakllandi va rivojlandi?
- A) o‘rta asrlar
 - B) antik davr
 - C) Buyuk geografik kashfiyotlar
 - D) ilmiy geografik ishlar
- 9.** Turkistonda qachon geografiya jamiyatini tashkil etilgan?
- A) 1897-yil
 - B) 1904-yil
 - C) 1893-yil
 - D) 1901-yil
- 10.** A. A. Grigorev tomonidan qaysi ta’limot yaratilgan?
- A) tabiat zonalligi
 - B) geografik qobiq
 - C) biosfera
 - D) geotizim
- 11.** Yer orbitasining Quyoshdan eng uzoq nuqtasiga nima deyiladi?
- A) afeliy
 - B) ekliptika
 - C) galaktika
 - D) perigeliy
- 12.** Qaysi olim geografiyaga oid 22 ta asar yozgan?
- A) Al-Xorazmiy
 - B) Abu Rayhon Beruniy
 - C) Umar Xayyom
 - D) Ahmad Farg‘oniy

13. M. Lomonosovga tegishli bo‘lgan asarni toping.

- A) «Tabiiy geografiyadan ma’ruzalar»
- B) «Umumiy geografiya»
- C) «Kosmografiyaga kirish»
- D) «Yer qatlamlari haqida»

14. 1845-yil qaysi davlatda geografiya jamiyati tashkil etilgan?

- A) Germaniya
- B) Buyuk Britaniya
- C) Fransiya
- D) Rossiya

15. Qaysi olim tabiatga bir butun, qat’iy qonuniyatli va uzlusiz rivojlanadigan tizim sifatida qarab yangi geografiyani yaratdi?

- A) V. Dokuchayev
- B) A. Sochava
- C) A. Gumboldt
- D) Ch. Layel

16. Qaysi kuch ta’sirida Yerning shakli davriy ravishda o‘zgarib turadi?

- A) quyosh va oyning tortishish kuchi
- B) markazdan qochma kuch
- C) gravitatsiya kuchi
- D) yerning tashqi va ichki kuchi

17. Quyosh sistemasida qancha asteroid mavjud?

- A) 35 000 ga yaqin
- B) 40 000 dan ortiq
- C) 43 000 dan ortiq
- D) 48 000 ga yaqin

18. Yer po‘stining qaysi turi o‘rta okean tizmalariga to‘g‘ri keladi?

- A) okean yer po‘sti
- B) materik yer po‘sti
- C) oraliq yer po‘sti
- D) riftogen yer posti

19. Zilzila kuchini aniqlang. «Bino va mebel tebranadi. Uyqudagilar uyg‘onib ketadi».

- A) sezilarli
- B) kuchli
- C) kuchsiz
- D) kuchsizroq

20. Yer po‘stida eng ko‘p tarqalgan kimyoiy elementlarni toping.

- 1) magniy;
 - 2) kislorod;
 - 3) kremliy;
 - 4) temir;
 - 5) aluminiy;
 - 6) litiy.
- A) 2, 3, 5
 - B) 1, 4, 6
 - C) 2, 3, 6
 - D) 1, 3, 5

21. Qaysi yer po‘sti chekka dengiz soyligi, orollar yoyi va chuqur cho‘kmalardan iborat?

- A) materik yer po‘sti
- B) okean yer po‘sti
- C) oraliq yer po‘sti
- D) riftogen yer po‘sti

22. Qaysi erada 13 ta iqlim mintaqalari, tabiat zonalari shakllangan, muz bosish hodisalari bo‘lib o‘tgan?

- A) proterozoy
- B) mezozoy
- C) kaynozoy
- D) paleozoy

23. Geografiya fani bilan tarix, filologiya fanlari oralig‘ida qaysi fan vujudga kelgan?

- A) etnografiya
- B) mamlakatshunoslik
- C) demografiya
- D) toponimika

24. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida g‘arbiy yo‘nalish qaysi hudud orqali olib borilgan?

- A) Atlantika okeani orqali
- B) Afrika bo‘ylab
- C) Tinch okeani bo‘ylab
- D) Yevrosiyoning shimoliy qirg‘oqlari bo‘ylab

25. 1821-yil qaysi davlatda geografiya jamiyati tashkil etilgan?

- A) Germaniya
- B) Buyuk Britaniya
- C) Fransiya
- D) Rossiya

26. Qaysi olim eramizdan avvalgi IV asrda, Yerning sharsimonligini, issiqlik mintaqalari mavjudligini mantiqiy jihatdan isbotladi?

- A) Eratosfen

- B) Strabon
- C) Pifagor
- D) Aristotel

27. Geologik qatlamlarning yoshi haqidagi nazariyaning asoschisi kim?

- A) Pallas
- B) Leybnits
- C) Kant
- D) Laplas

28. Qaysi geologik davrda Yer taraqqiyotidagi eng ko‘p daraxt o‘simpliklari o’sgan?

- A) yura
- B) toshko‘mir
- C) trias
- D) ordovik

29. R. Amundsen Janubiy qutbni qachon kashf etgan?

- A) 1909-yil
- B) 1906-yil
- C) 1911-yil
- D) 1914-yil

30. «Uch dengiz osha sayohat» asarining muallifi kim?

- A) M. Maklay
- B) F. Magellan
- C) A. Nikitin
- D) X. Kolumb

31. O‘rtal Osiyolik qaysi olim geografik lug‘at-o‘sha davrdagi geografik bilimlar ensiklopediyasini tuzdi?

- A) Umar Xayyom
- B) Abdurazzoq Samarqandiy
- C) Yoqt Hamaviy
- D) Ahmad Farg‘oniy

32. Vulqon va tektonik harakatlarning boshlanish paytidan Yerning qaysi bosqichi boshlangan?

- A) astronomik
- B) biologik
- C) antropogen
- D) geologik

33. A. Gumboldtga tegishli bo‘lgan asarni toping.

- A) «Tabiat manzarasi»

- B) «Atmosfera hodisalari»
- C) «Kosmografiya»
- D) «Umumiy geografiya»

34. Qaysi davrda dastlabki umrtqalilar paydo bo‘lgan?

- A) perm
- B) devon
- C) silur
- D) ordovik

35. O‘rtal Osiyolik qaysi olim olamning gelotsentrik tuzilishi nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan?

- A) Muhammad al-Xorazmiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Ahmad Farg‘oniy
- D) Abu Nasr Forobiy

36. Qachon O. Kotsebu Dunyo okeani bo‘ylab ekspeditsiyasida marjon orollarining kelib chiqishini o‘rgandi?

- A) 1823–1825-yillar
- B) 1826–1830-yillar
- C) 1819–1821-yillar
- D) 1822–1826-yillar

37. Ural, Oltoy, Tyanshan, Appalachi, Kap tog‘lari qaysi tog‘ burmalanishi davrida paydo bo‘lgan?

- A) kaledon
- B) mezozoy
- C) baykal
- D) gersin

38. Yer po‘stining qaysi qatlami faqat orollar yoyida paydo bo‘ladi?

- A) cho‘kindi
- B) granit
- C) bazalt
- D) okean po‘sti

39. 8 ballik zilzila kuchi qanday nomlanadi?

- A) vayron qiluvchi
- B) juda kuchli
- C) yakson etuvchi
- D) o‘ta vayron qiluvchi

40. Mezozoy burmalanishi davrida hosil bo‘lgan hududni toping.

- A) Sharqiy Avstraliya
- B) Malakka yarimoroli

- C) Filippin oroli
D) O'rta dengiz sohillari

41. Qaysi davrda tishli qushlar tarqalib, bahaybat dinozavrлar paydo bo'lgan?
A) yura
B) bo'r
C) trias
D) perm

42. Necha balli zilzila sodir bo'lganda qoyalar qulab, tepaliklar suriladi, yerdagi yoriqlarning eni 10 sm gacha boradi?
A) 9
B) 11
C) 10
D) 8

43. Qaysi erada Pangeya ko'p o'tmasdan yana parchalanib, Tetis va Reya okeanlari paydo bo'la boshlagan?
A) proterozoy
B) paleozoy
C) meozoy
D) arxey

44. Alp burmalanishi davrida hosil bo'lgan hududni toping.
A) Yangi Gvineya oroli
B) Uzoq Sharq
C) Yava orolinining shimoli
D) G'arbiy Yevropa

45. Qaysi fan kichik hududlar tabiatining tuzilishi va xususiyatlarini tadqiq qiladi?
A) Geokriologiya
B) Landshaftshunoslik
C) Umumiy tabiyi geografiya
D) Geoekologiya

46. Yerda 3,8 mlrd yil avval hayot paydo bo'lishi bilan Yer taraqqiyotining qaysi bosqichi boshlangan?
A) astronomik
B) geologik
C) biologik
D) antropogen

47. Stratigrafik va unga moslashgan geoxronologiya shkalasi qaysi shaharda bo'lib o'tgan ikkinchi xalqaro geologlar kongressida tasdiqlangan?

- A) Antverpen
B) Parij
C) Bolonya
D) Praga

48. Sharqiy va G'arbiy Sayan, Qozog'iston past tog'lari qaysi tog' burmalanishi davrida hosil bo'lgan?
A) baykal
B) kaledon
C) gersin
D) meozoy

49. Qaysi sayyoh 1768–1779-yillarda dunyo bo'ylab ekpeditsiya uyuشتırgan?
A) J. Laperuz
B) V. Bering
C) J. Kuk
D) A. Chirikov

50. Gidrologiya fani nechta qismiga bo'linadi?
A) 2 ta: okeanologiya va quruqlik hidrologiyasi
B) 2 ta: daryolar va yerosti suvlari
C) 3 ta: okeanologiya, kriologiya, iqlimshunoslik;
D) 2 ta: limnologiya va okeanologiya